

O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA MUNOSABATLARI

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Sayyora Kurolova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston bilan Janubiy Koreya davlatlari o'rtasidagi alohida strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan milliy manfaatlar, iqtisodiy taraqqiyot va ikki davlatning jahondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladigan hamkorliklar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya, axborot texnologiya, strategik sheriklik.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о национальных интересах, экономическом развитии и сотрудничестве, служащем укреплению влияния двух стран в мире, поднявшихся до уровня особого стратегического партнерства между Узбекистаном и Южной Кореей.*

Ключевые слова: *Республика Узбекистан и Южная Корея, информационные технологии, стратегическое партнерство.*

Ko'p asrlardan buyon O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida madaniy, iqtisodiy, siyosiy, strategik sheriklik borasida aloqalar mustahkamlanib kelmoqda. Bu jarayon ayniqsa yurtimizning mustaqilligini Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib Janubiy Koreya respublikasi tan olganligidan keyin va ikki davlat o'rtasida 1992-yilning 29-yanvarida boshlangan diplomatik munosabatlardan so'ng keskin tus oldi. O'zbekistonda ilm-fan, qadimdan rivojlanib kelmoqda. Vatanimiz o'tmishi boy, kelajagi porloq mamlakat sifatida o'ziga xos taraqqiyot yo'lida jadal rivojlanyabdiki, dunyoning yetakchi davlatlari qatorida Janubiy Koreya bilan ham yaqindan hamkorlik qilishga e'tibor qaratyabdi. Sababi Koreya Respublikasi taraqqiyot darajasi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turgan bo'lib, iqtisodiyotini zamonaviy asosda yangilash borasida boy tajribaga ega mamlakatdir. Bu davlatga bo'lgan qiziqishning ortib borishi yana shu bilan ifodalanadiki, O'zbekiston siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin Prezidentimiz I.A.Karimovning dastlabki xorijiy rasmiy tashriflaridan biri aynan shu mamlakatga bo'lgandi. Tashrif davomida ikki davlat o'rtasida shartnomalar imzolangan, har jihatdan mustahkam rishtalar o'rnatilgan. O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi aloqalarning huquqiy va siyosiy poydevori har ikki davlat Prezidentlari, hukumat boshliqlari va turli darajadagi delegatsiyalar tomonidan tuzilgan, kelishuvlar, shartnomalar va bitimlar asosida yuzaga keldi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi aloqalar natijasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatni iqtisodiy jihatdan jahondagi ilg'or davlatlar qatoriga qo'shish, bu mamlakatda ilmiy-texnikaviy va ta'lim sohasidagi siyosatni to'g'ri

ishlab chiqilganligiga va uni hayotga to'g'ri joriy qilinishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Har ikki davlat o'rtasidagi imzolanayotgan shartnomalarning amaliy isboti sifatida aytishimiz mumkinki, 1993-yilning mart oyida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida koreyashunoslik fakulteti ochilgan. O'zbekiston jahon tillari universitetida, "Koreys tili markazi", Samarqand chet tillari institutida "Koreys tili va madaniyati markazi" faoliyat yuritadi. 2014-yilda Janubiy Koreyaning Inha universiteti Toshkentda yuqori texnologiyali muhandislikka yo'naltirilgan barcha kurslarini ingliz tilida olib boradigan filialini ochdi. O'zbekistonning oliy o'quv yurtlari ilmiy tadqiqot institutlari bilan Janubiy Koreya universtitetlari, ilmiy markazlari o'rtasida yaqindan aloqalar o'rnatildi. O'zbekiston va Janubiy Koreya olimlarining ilmiy hamkorligiga tamal toshi qo'yildi. Aspirantlar, tadqiqotchilar, talabalar almashuvi, malaka oshirish shaklidagi aloqalar kenggayib bormoqda. Rishtalar faqat ta'lim sohasida emas, balki iqtisodiy, diplomatik, madaniy va gumanitar sohalarda ham mavjud bo'lib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlamoqda. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham Koreya bilan axborot texnologiyalari, raqamli tibbiyot, ta'lim va madaniyat sohaslarida samarali hamkorlikni olib boryabdi. Imzolanayotgan shartnomalar, kelishilayotgan rejalar O'zbekiston uchun ham, Koreya uchun ham foydali ekanini ko'rishimiz mumkin. San'at, sport, tabobat sohaslarida Janubiy Koreya bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi aloqalarda katta ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu aloqalar, san'at ko'rgazmalari, musiqa va kino festivallari, sport bo'yicha musobaqalar tashkil qilishda va unda faol ishtirok etishda, tabobat sohasida yordam ko'rsatishda o'z ifodasini topmoqda. Diplomatik munosabatlar o'rnatilishining boshida O'zbekiston Respublikasida Koreya Respublikasining fuqarolari bo'lmagan. 2019-yilda O'zbekistonga Koreya Respublikasidan 35524 nafar fuqaro tashrif buyurgan. 2000-yilda Koreya Respublikasiga O'zbekistondan 60 nafarga yaqin talaba borgan bo'lsa, 2019-yilda ularning soni 10 ming nafardan oshdi.⁸

O'zbekiston bilan Janubiy Koreya munosabatlaridagi madaniy aloqalar ko'proq bir tomonlama ekanligi, ya'ni O'zbekistonda Koreya madaniyati ko'proq targ'ib qilinayotgani sezilmoqda. Yurtimizda har yili Koreya madaniyati haftalıkları ham bo'lib o'tadi. Muhim bir tarixiy fakt: Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarida tasvirlangan yulduzlar jadvali Choson davlatida qadimgi koreys taqvimining yaratilishiga asos bo'lib xizmat qilgan.⁹ Ikki mamlakat geografik jihatdan bir-biridan uzoq bo'lsa-da, tinchlik va taraqqiyotni mustahkamlash yo'lida mushtarak maqsadlarga ega davlatlardir. Ta'kidlash joizki, Seul shahrining Socho tumanida o'zbek xalqining buyuk ajdodi, shoir va mutafakkiri Alisher Navoiy haykali ochilishi ikki davlat ma'naviy hayotidagi ulkan tarixiy voqea bo'ldi.¹⁰ So'nggi paytlarda O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasidagi samarali hamkorlik

⁸<https://www.gazeta.uz/ru/2022/01/29/uzbekistan-korea/>

⁹ <https://russian.korea.net/NewsFocus/Opinion/view?articleId=210431>

¹⁰ <https://russian.korea.net/NewsFocus/Opinion/view?articleId=210431>

alohida strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Shu munosabat bilan ikki tomonlama munosabatlarning kelgusida ham izchil rivojlanib borishini ishonch bilan qayd etish mumkin. Umuman, Janubiy Koreya bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi aloqalar qisqa vaqt ichida eng yuqori pog'onalariga ko'tarildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston va janubiy koreya xalqlari o'rtasida azaliy do'stlik rishtalari mavjud, ularning madaniyati va mentaliteti o'xshash. Taqdir taqozosi bilan yurtimizga kelib qolgan koreyslar jamiyatimizning to'laqonli azosiga aylandi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasida o'tgan davrdagi samarali hamkorlik, alohida strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning aloqalar xalq hayoti va manfaatlariga xizmat qilishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida bir qancha shartnomalar imzolangan" . Uz Daily . 2014-06-18 . Olingan 2020-09-28

2. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/01/29/uzbekistan-korea/>

3. <https://russian.korea.net/NewsFocus/Opinion/view?articleId=210431>

4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Janubiy_Koreya_munosabatlari

Saydaliyevich, U. S., & Sardorbek, S. (2022). FIGHT AGAINST OFFENSES. RESPONSIBILITY OF MILITARY SERVICES. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 11(1), 359-366.

Tojimatovich, A. A., & Saydaliyevich, U. S. (2022). Abduganiyev Jamhurbek Isroil o'gli." Life of the Faculty of Military Education." Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 6-9.

Tojimatovich, A. A., Saydaliyevich, U. S., & Isroil o'gli, A. J. (2022). Life of the Faculty of Military Education. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 6-9.

Saydaliyevich, U. S. (2022). Struggle of the peoples of Central Asia against the Achaemenids Tomaris, Shirak. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 6, 64-67.

Kuyoshbek, Y., Nurmukhammad, K., Arabboy, Y., Sardorbek, S., & Saydaliyevich, U. S. (2022). THE CONQUEST OF CENTRAL ASIA BY THE ARABS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 130-134).

Tojimatovich, A. A., & Saydaliyevich, U. S. (2021). Formation Of Science as A Value and Classification of Values. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 3, 172-178.

Saydaliyevich, U. S. (2021). Abdulhakimov Shahzodbek Abdurashid o'gli, and Xofizov Javohirbek Qurbonboy o'gli." UNDERSTANDING AND CONCEPTING BALLS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9, 924-929.

Khalilovich, M. S., Saydaliyevich, U. S., & Ogli, A. O. M. (2022). Education of young people in the spirit of military and patriotism. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 572-574.